To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
E-mail: mirazamtohktasinov@gmail.com

SOMONIYLAR DAVLATINING MASHHUR SARKARDALARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.12600633

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar davlatining harbiy sohada qudratli armiya tashkillashda va ushbu armiyani jangovar qobilyatini shakllantirishda o‘zining beqiyos hissalarini qo‘shib kelgan Somoniylar davlatining eng mashhur sarkardalari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Movaraunnahr, Xuroson, Somoniy hukumdorlar, mamlakat boshqaruvi, Sohib ash-shurat, Hojib Tosh

Somoniylar davlatining eng mashhur lashkarboshilaridan biri va davlat arbobi Hojib Toshdir. Kelib chiqishi asli turkiy qabilalarga mansub bo‘lib, ajdodlari ham tabaqa vakillari bo‘lgan. Somoniylar hukmdori Nuh ibn Mansur (976-997) saroyda katta shon-shuhrat va nufuzga erishgan. Manbalarda keltirishicha, Hojib Tosh Xuroson hokimi bo‘lgandan keyin sipohsolor martabasini qo‘lga kiritgan. Shu bilan bir qatorda doimo dushmanlari ustidan g‘alaba g‘ozonib kelgan. Ma’lumotlar ko‘ra Hojib Tosh o‘zining ilk faoliyatini Farg‘ona hokimi yoki viloyatda ma’lum bir katta mavqega ega bo‘lganligi qayd etib o‘tilgan. Buning yorqin dalili sifatida 976-977 yillardagi Somoniylar davrida Farg‘onada zarb etilgan tangalarda uning nomi yozilganligini keltirish mumkin. Somoniy hukmdor Mansurning o‘g‘li va vorisi Abulqosim Nuh endigina 13 yoshda ekanligi sababli davlatni uning o‘rniga onasi va vazir Abulxusayn Abdulloh ibn Ahmad Utibiylar idora etganlar. Vazir Utibiy 982-yilda qudratli Abulxasan Simjuriyni taxtdan olishga va uning o‘rniga vazirga sodiq bo‘lgan Hojib Toshni tayinlashga erishdi. Biroq 982-yilning o‘zidayoq Utibiy o‘ldiriladi, buning oqibatida g‘alayonlar boshlanadi. Bunday og‘ir vaziyatda hukumat tartib o‘rnatish maqsadida Hojib Toshni Buxoroga chaqiradi. Qulay vaziyatdan foydalangan Hojib Tosh o‘z raqiblari bilan shartnoma tuzadi va shu yo‘l bilan o‘zining sipohsolorlik mavqeyini saqlab qoladi. 986-yil avgustda Hojib Tosh Buxorodan jo‘nab ketganidan so‘ng marhum vazir Utibiy oilasiga muxolif Abdulloh ibn Muhammad ibn Uzayr vazir etib tayinlanadi va uning qo‘llab-quvatlashi natijasida sipohsolor mavqeyi yana turkiy Abulxasan Simjuriyga o‘tadi. Hojib Tosh Abulxasan va Foiqqa nisbatan qurolli qarshilik ko‘rsatishga harakat qiladi, ammo 987-yilning 2-dekabrida mag‘lubiyatga uchraydi hamda Go‘rgonga qochib ketadi. Ma’lumotlarga qaraganda Hojib Tosh umrini oxirlarida Go‘rgonda yashagan va 988-yilda o‘lat kasalligi bilan vafot etadi.

Bektuzun – Somoniylar va qoraxoniylar davrining yirik sarkardalaridan biri hisoblangan. 976-1024 yillarda Xuroson, Samarqand, Kesh va Xo‘jandda hokim bo‘lgan. Bektuzun Somoniylar saroyida xizmat qilgan, xalifaning turkiy g‘ulomlaridan yetishib chiqqan yirik davlat arbobi. Somoniylar hukmdori Mansur ibn Nuh uni Xurosonga hokim etib tayinlaydi. Sobuqteginning vorisi va o‘g‘li Mahmud G‘aznaviy Bektuzinni Nishopurdan quvib chiqargach, hojib boshqa bir ulug‘ shaxs Foiq bilan ittifoq tuzadi. Bu ittifoq natijasida Mansurni taxtdan ag‘darib, 999-yilda Buxoroda amirning ukasi Abdumalikni taxtga o‘tkaziladi. Joriy hukumatni turkiy zodagonlar tomonidan tomonidan boshqarilishi Somoniylar davlati qudratini mislsiz darajada tushib ketganlidan darak berar edi. Bu qulay imkoniyatdan oqilona foydalangan Qoraxoniylar qo‘mondoni Nasr ibn Aliy 999-yilning okta-

brida Buxoro-ni qarshiliksiz bosib oladi. Bosqin yakunida Bektuzinni asir olib, bir muddat uni zindonda saqlaydi. Manbalarda keltirilishicha, Bektuzin asirlikdan qochib Somoniylar davlatining qulashi arafasida uni saqlab qolishga harakat qilgan. Bir paytlar sobiq hukumatning taqdirini hal qiluvchi shaxslardan biri bo‘lgan iste’dodli sarkarda Bektuzun Qoraxoniylar istilosidan omon qolibgina qolmay, balki yangi turkiy sulola xizmatiga ham astoydil bel bog‘laydi. Jumladan u turli davrlarda Keshda (1008-1012), Samarqandda (1016-1018) va Xo‘jand shahrida (1023-1024) kabi mulklarda amir lavozimiga tayinlanadi. Bektuzun Kesh va Xo‘jand shaharlarida hukmronlik qilgan davrlarda eng muhim huquqlardan biri – pul zarb etish vakolatini qo‘lga kiritadi. Ma’lumotlarda Bektuzun o‘z nomidan kumush tangalar zarb ettirgan bo‘lib, bu tangalarda Bektuzunning uzundan-uzun nomi o‘yib yozilgan edi. Numizmatik manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, 1024-yildan so‘ng ma’lum bo‘lgan tangalar Bektuzun nomi bilan chiqarilgan bo‘lib, bu tangalardagi yozuvlar buning yorqin misolidir.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, yuqorida nomlari qayd etilgan barcha harbiy lashkarboshilarning harbiy mahorati va Somoniylar davlatini harbiy qo‘shinining salohiyati ushbu davlatning ya’ni Somoniylar davlatining markazlashgan davlatga aylanishi uchun kata zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. . – Т:. Фан. 1996. Б. 120.

2. Неьматов Н. Давлати Сомониён. – Ирфон. 1999. Б. 328.

3. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит тарих. – Т:. Цюрих. 2005. Б. 604.

4. Каримов И. Юксак маьнавият – енгилмас куч. –Т:. Маънавият. 2008. Б.108.

5. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –T.: Sharq. 2010. B. 511

6. Homidiy H. Daholar davrasi. –T:. O’qituvchi. 2011. B. 352.

7. Эшов Б.ва Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.

8. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.

9. Is’hoqov M va Alimova R. Arxivshunoslik. O’quv qo’llanma.-T:,2017. B. 184.

10. Уватов У. Буюк юрт алломалари. –T:, O’zbekiston. 2020. Б. 426.

11. Шомуродова С. Сомонийлар даври шоирлари. //Мозийдан садо. 2. (85). 2020. -Б. 21.

12. Sagdullayev A. O’zbekiston tarixi. – T.:Donishmand ziyosi. 2021.B. 624.

13. Bobojonova F. Buxoro me’moriy obidalari tarixi. Buxoro:. Fan va ta’lim. 2022. B. 285.

14.https://www.wikiwand.com/uz/Abd_al-Malik_I_(Somoniy)

15. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Somoniylar_davlati

16. https://qomus.info/oz/encyclopedia/q/qoraxoniylar-davlati

17. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hojib

18. https://qomus.info/oz/encyclopedia/r/rabod

19.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Al_Muqtadir

20.https://en.m.wikipedia.org/wiki/Ahmad_ibn_Fadlan

21. https://moturidiy.uz/oz/news/846

22. https://shosh.uz/uz/abu-muhammad-matroniy-2